

INTIHO

Xolmatova Maftuna Chori qizi

*Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani 14 -Umumiy o'rta ta'lim maktabining texnologiya fani  
o'qituvchisi*

Bu dunyoda o'lim haq Men g'arib unga il'haq

Yoz chillasi! Tashqarida quyosh hamma joyni kuydirib yondirmoqda. Qaynoq cho'l bag'ridagi salqin oshxonada esa zavod ishchilaritushlik qilishmoqda. Endi ishga kirganiga 6 oy bo'lgan Mirislom esa sho'rvaga ishtahasizgina termulib turibdi. Uning haftalarga cho'zilgan ishtahasizligi hamkasb do'stlarini havotirga sola boshladi. Lekin, Mirislom o'tib ketar deganicha sharbatdan ichdi va qayd qilish uchun hojatxonaga yugurdi. Rangi oqargan holda qaytganida esa boshlig'i Botir aka kutib oldi.

-Ukam sog'lig'ingga qarasang bo'lmaydimi ? Ozib ketganingni qara! Hoziroq poliklinikaga borib tekshirtir. Xopmi?

-Aka ishchi? Kechgacha ish ko'p axir. Qo'rqma, yigitlar eplashadi. Sen gapni ko'paytirmay poliklinikaga bor. Tez!

Mieislom noiloj poliklinikaga yo'l oldi. Belgilar haqida shifokor bilan gaplashgach, MSKT tushishiga to'g'ri keldi. Analiz javobi chiqquncha asrlar o'tdi go'yo. Vanihoyat, doctor xonasiga chaqirdi:

Keling Mahmudov. Oshqozonni qiynab qo'yibsizku. Ahvoliz yaxshi lekin, davolanish kerak.

Keyingi oy to'yim.Shunga "otpuska" ga chiqmoqchiman. Shu payt davolanarman.

Yo'q, Mirislomjondavolanishni kechiktirib bo'lmaydi."BS" olasiz. Men sizga hozir yo'llanma yozib beraman.

Xop doktor deya qog'ozni olib xonadan chiqdi. Poliklinikadan ishxonagacha 2-3 km, mashina kutgisi kelmay piyoda yo'l boshladi. Nima kasal ekanman deya qiziqqancha birinchi qatorni o'qidiyu muzladi."Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya markazi Qashqadaryo filiali " ga .....

Shu tahlit Mirislom zavodga qanday borganini bilmadi.U yerda uni kadrlar bo'limi boshlig'i Alisher aka va sex boshlig'i Botir aka kutib olib, dalda berishdi. Koshki bu gaplarni Mirislom eshitsa? Endi nima qiladi? Bu holini kimga aytoladi? Ota-onasi ancha avval o'tib ketishgan. Shuncha do'stlari, qarindoshlari bo'la turib, hamma muammolarini aytoladigan birorta yaqini yo'qligi alam qildi. O'ksib-o'ksib yig'ladi,lekin, buning foydasi bormi yoki dardi yengillashdimi ? Shu payt hayoliga to'y sabab yettinchi osmonda uchayotgan Mohira keldi. Yoki bu xabarni unga aytsinmi? Unda Mohirani yettinchi osmondan to'g'ri qorong'u qabrga tiqqan bo'ladiku ? Uch yillik qarshiliklardan so'ng ota-onasi rozi bo'lganda bechora qiz qancha quvongandi ? Butun kun va tun shu hayollarda o'tgach, Mirislom tongda Qarshidagi onkologiya markaziga yo'l oldi.

Onkologiya markazi poliklinikasida tekshiruv uchun navbat uzundan-uzun edi. Nahotki, shuncha dardmand bu azobda bo'lsa? Shifokor qabulni ish vaqtidan yarim soat ilgari boshlagan, dastlab qariya va nogironlarni ko'rikdan o'tkazayotgan edi. Ora-orada biz

ertaroq kelganmizdeganlarga qabulni to'xtatamandeya qo'rqitish bilan javob berib, ishida davom etardi. Navbati kelgach Mirislom kayfiyatsizgina qabulga kirib, qog'ozlarni Sohib Jo'rayevga uzatdi.

Xo'sh, Mahmudov oshqozonga nega qaramadiz ? Sizdan noroziku ? deya kuldi  
Doktor rostini ayting. Rakmi?

Avvalo,men ham shuni aniqlamoqchiman. Biopsiya topshirasiz, ertaga kelishda gistologik tahlil natijalarini olib kelasiz. Hozircha sizga ruxsat.

Mirislom tahlillarni topshirgach, ming bir hayollar ichra uyga qaytdi.

\*\*\*\*\*

Mahmudov, natijalaringiz unchalik yaxshi emas. Birorta yaqiniz bo'lsa chaqiring. Maslahatlashib olishimiz kerak.

Doktor barchasini o'zimga aytavering. Baribir chaqiradigan yaqinim yo'q!

Xop ixtiyoriz. Oshqozonizda xavfli o'simta bor. U jigarga metastaz bergan. Ahvol jiddiy, bugunoq shifoxonaga yotib davolanishiz kerak.

Doktor bir savolim bor. Maylimi?

Bemalol!

Shu paytgacha ichmaganman, chekmaganman. Qizlar bilan yurmaganman. Xarom ish qilmaganman. Shundayam nega men? Yoki halolligim uchun mukofotmi bu? Dunyo adolati shumikan? Xaromxo'rlar mazza qilib yashaydiyu, halol bo'lib men azoblanamanmi?

Bu ham Allohni sinovi. Nasib hammasi yaxshi bo'ladi.

Nega barcha sinov faqat menga ?

Bu yerda tortishib dunyo adolatini topolmaymiz. Vaqt g'animat statsionarga boring!

Xop deya Mirislom shifoxona boshlig'i Mirzayevning qabuliga bordi. Mirzayev barcha analizlarni ko'rib chiqqach, uka bizda joy yo'q dedi.

Nahotki, shunaqa katta klinikada joy bo'lmasa ? Boshqa sabab bo'lsa ochiq ayting. Yoki "tomog'iz taqillayabdi" mi ?

Achchiq gapingni boshqa joyda gapirasan xopmi ? 6 oyga qolmay o'lasan baribir. Bekorga shifoxona statistikasini yomonlashtirasan. Puling ko'p bo'lsa, xususiyda davolan. Bu shifoxonaga men javobgarman. Tushunarlimi ?

Xop statistikangni ortidan yugur ! Shifokor, najotkor nomi hayf senga.

Shu tariqa Mirislom qarama-qarshi tuyg'ular og'ushida ko'chaga chiqdi. Kun sayin ishtahasizlik va quvvatsizlik ahvolini yomonlashtirdi. Bir necha xususiy shifoxonalar ham uni qaytarishdi.

" Sizni tuzatolmasagu, o'lim yuz bersa litsenziyamiz xavfda qoladi. Shunga to'g'ri tushunasiz " degan vaj barchasida takrorlandi.

Mirislomda endi yana endi ikkita yangi dard: ilojsizlik va umidsizlik ham paydo bo'ldi va shu hayollar og'ushida tavsiya qilingan so'nggi klinikaga bordi. U yerdagi shifokorga qog'ozlarni uzatgach, shifokor savol berdi.

Ahvoliz haqida hammasini bilasiza-a ?

Ha albatta. Hozir litsenziyangiz sabab meni qaytarishingizni ham bilaman.

Yo'q adashasiz. Men shifokorman. Agar rozi bo'lsangiz so'nggi amaliyotgacha birga kurashaman.

Sizni yuqorida "tank" iz bormi ? Litsenziyani yo'qotishdan qo'rqmayabsiz ?

Tanishimku yo'q. Litsenziyadan ko'ra vijdonimni yo'qotishdan ko'proq qo'rqaman. Agar xohlasayiz, ertadan amaliyotni boshlaymiz.

Xop kelishdik deya Mirislom uyiga yo'l oldi. Barcha yaqinlariga bir oyga ish bilan Buxoroga ketyabman dedi. To'y uchun yiqqan pullarini " nasib qilmagan ekan " deya olganча ertalabdan klinikaga jo'nadi.

Uni shifokor kutib olib, rejalari bilan tanishtirdi. Agar o'simta faqat oshqozonda bo'lsa, olib tashlardik tamom. Lekin, kamida jigarga metastaz bergan. Nurterapiya ham deyarli foydasiz. Agar operatsiyaga rozilik bersayiz, tavakkal qilib ko'raman bo'lmasa nurterapiya qilamiz.

Doktor radikal bo'lsa ham o'zizga maqbulini qiling men sizga ishonaman.

Bemorni operatsiyaga tayyorlanglar.

Operatsiya jarayonida ma'lum bo'ldiki, o'simta butun tanaga tarqalgan ekan. Shu sabab shifokor hech narsa qilolmay vaziyatni og'irlashtirdi, xolos.

Operatsiyadan so'ng Mirislom butunlay umidsizlikka tushdi. Zero, o'simta ham uning umid iplarini bitta-bitta uzayotgan edi. Hamshiradan shifokorni chaqirishni so'radi.

Doktor men o'laman. Buni ikkimiz ham bilamiz. Faqat bu qachon ?

Men jon oluvchi Azroil ham, umrni belgilovchi Alloh ham emasman.

Taxminan qancha vaqtim bor, ayting iltimos ?

Prognozimcha 1-3 oy. Yanayam hammasi Allohni iznida. Shifo bersa hech gap emas.

Mirislom zo'raki iljaydi .....

\*\*\*\*\*

Dunyoda azoblar juda ko'p. Lekin, ular ichra eng og'iri o'limini kutib yashashdir. Mirislom amakisiga elefon qildi va buni hech kimga aytmaslikni tayinlab, bor gapni aytib berdi. Keyingi qiladigan ishi ishi esa Mohiraga " Men boshqasini sevib qoldim. U bilan Germaniyaga qochib ketyabmiz " deya sms yozdi va sim-kartani sindirib axlatga tashladi. Bu Mirislomning intihosi edi. Kutilmagan, qo'rqinchli va shafqatsiz intiho .....